

**“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI HIKOYATLARDA ADOLAT
TASVIRI (“MAHMUD HIKOYATI” MISOLIDA)**

Shodiya Otanazarova

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada Alisher Navoiyning adolat g‘oyasining badiiy ifodasiga oid tajribalari tahlilga tortilgan. Unda bu boradagi an‘ana va shoirning kashfiyotlari haqida so‘z yuritilgan.*

Tayanch tushunchalar: *adolat, g‘oya, badiiy mahorat.*

Abstract: *The articles examines Alisher Navoi’s experiments on the artistic description of a good idea. It talks about the poet’s discoveries in this regard.*

Keywords: *justice, idea, artistic skill.*

Alisher Navoiy asarlaridagi odam va olamga daxldor bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy hamda adabiy-estetik muammolarning badiiy tadqiqini ko‘rish qiyin emas. Adib ijodxonasida adabiy qahramonlarning ulkan galereyasi yaratilgan. Ularning yoshi, kasbi, mashg‘uloti, ijtimoiy mavqeiga qaralsa, jamiyatdagi deyarli har bir qatlam, har bir guruhning qamrab olingani oydinlashadi.

Alisher Navoiyning qalami sehrli, o‘tkir, o‘z tili bilan aytganda “nuktapardoz”. Agar o‘sha davr adabiy janrlarining eng mittisi fard-u eng hashamatlisi doston bo‘ladigan bo‘lsa, ularning barchasida yaratilgan asarlar buyuk mutafakkir nomini bugun ham munosib tarzda barchasida yaratilgan asarlar buyuk mutafakkir nomini bugun ham munosib tarzda sharaflab turibdi. Mavlono qaysi mavzuda qalam tebratgan bo‘lsa, “...bularning barchasi avjdin quyi inmagay va bu tartibim kavkabasi a‘lo darajadin o‘zga yerni beganmagay”, – degan e‘tiroflariga haq berish joiz.⁶⁷

Birgina ijtimoiy adolat muammosining badiiy talqinining o‘ziyoq bu mulohazalarni tasdiqlaydi. Ushbu muammo jamiyatdagi turli toifadagi shaxslarga bog‘liq holda talqin etiladi.

Masalan, “Saddi Iskandariy” dagi hikoyatlardan birining bosh mavzusi – adolat. Bu “Mahmud hikoyati” dir. Ijodkorning mavzu tanlashi, avvalo, uning hayotiy tajribasiga bog‘liqdir.⁶⁸

Badiiy asarlar mavzusi ikki xil bo‘ladi, deyish mumkin. Birinchisi – abadiy mavzular, ikkinchisi – davriy mavzular. Ma‘naviy- axloqiy turmush bilan bog‘liq

⁶⁷Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 10-jild. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyat matbaa uyi, 2011, 511-bet.

⁶⁸Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik asoslari. –T., Sharq, 2000, 48-bet.

oila, sevgi-muhabbat, adolat, vatanparvarlik, e'tiqod, o'zi yashayotgan zamonga, jamiyatga munosabat kabilar adabiyotning abadiy mavzularidir.⁶⁹

“Mahmud hikoyatikim, ajal og'ir uyqusig'a borg'ondin so'ngra Mas'udning tushiga kirdi va adolat ayni paydo qilur uchun anga pandlar berdi va nasihat zilolidin aning yuziga bir su urdikim, ani g'aflat uyqusidin seskandurdi” (Vafotidan so'ng Mas'udning tushiga kirib adolat bobida pand-u nasihatlar bergan va bu nasihatlarining tiniq suvidan uning yuziga sepib g'aflat uyqusidan uyg'otgan Mahmud hikoyati).⁷⁰

Eshittimki, Mahmudi g'oziyg'a dahr,

Chu jomi hayot ichra hal qildi zahr. [116]

Qilib “irje'iy ” nag'masin istimo',

Ruju' etti olamg'a aylab vido'. [117]

Eshitishimga qaraganda, dunyo g'olib Mahmudga hayot jomidan zahar ichiribdi. O'lim nidosi qulog'iga yetgach, olam bilan vidolashar ekan, o'z o'rniga joniga payvand bo'lgan farzandini valiahd etib tayinladi. U dunyoni tark etgach, o'g'il ota firoqida ancha mashaqqatlar chekdi. O'g'ilning oti Mas'ud bo'lib, bir kecha uning tushiga otasi Mahmud kirdi.

Ko'rub shoh Mas'ud bu turfa hol,

O'pub yer, atosidin etti savol.

Ki: “Sultonlig'ing ichra netting ekin-

Ki, bu nav' manzilg'a yetting ekin?” [118]

Shohning go'zalligidan ko'z ravshan, hididan dimog' muattar bo'lar edi. Shoh Mas'ud bu ajoyib holni ko'rib, yer o'pib otasiga savol bilan murojaat etdi: “Podshohliging davrida qanday ishlar qilgan edingki, bunday baxtga sazovor bo'lding?”

Dedi: “Ul zamonkim, jahondor edim,

Adolat qilur fikrida bor edim.” [119]

U aytdiki: “Jahondorlik vaqtimda doimo adolat bilan ish tutish to'g'risida o'yladim. Hindistonga qo'shin tortganimda, shu mamlakatni manzilgoh qilgan edim va aytgan edimki, xalq askarlardan, ular tomonidan yetkazilishi mumkin bo'lgan jabr-u jafolardan xavotirda bo'lmasin”. Jarchi tomonidan e'lon qilingan bu so'zlardan xalq xabar topib tinchigach, menda sayr qilishga moyillik tug'ildi. O'rmonning har tarafini sayr-ziyorat qilib yurar ekanman, nogoh ko'zim odamlar yashaydigan bir orolga tushdi. U yerda bir necha oila holsizlik va bechoralik bilan kun ko'rar edi. Yog'och va qamishdan yasalgan boshpanani ular zar bilan hal berib,

⁶⁹ Abdulla Ulug'ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2018, 48-bet.

⁷⁰ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020, 116-bet.

xush isli sandaldan bino qilingandek xayol qilar edilar. Uy ichidagi bo'yra go'yo gilam-u, bog'-u bo'ston ularga buzuq vayronadek edi. Bu holga nazar tashlab o'tar ekanman, qulog'imga jabrdiyda biro damning ovozi eshitildi. Otim jilovini shu tomonga burdim, qarasam, bir notavon ayol kishi ekan. Tund, xayoli buzuq askar boshilardan biri uning hovlisi chetini buzib kirib, bir necha shoh o'tinini, to'rva to'la somon va yashil sopoldan yasalgan may idishini solib chiqib ketayotgan ekan, nogoh menga ro'baro kelib qoldi. Uning bosqinchi, buzg'unchi ekani aniq edi. Lekin shunga qaramay adolat talab qiluvchi dodxoh bilan tortishib, ikki-uch guvoh boshlab keldi. Qo'lidagi ashyolarni olib, jafokor egasiga qaytardim, hovlisini qamish bilan o'rab, yiqilay deb turgan chiylarini bir-biriga tutashtirib bog'ladim. So'ng zolimning qo'llarini mahkam bog'lab, bo'g'zidan shu uy oldiga osib qo'ydim. G'amboda kampir hamma narsalarini olgach, qo'shinim sari otimni yeldirib ketdim. Men bu dunyoni tark etganim zamon mazkur shodlik uyi mening makonim bo'ldi. Mening gunohlarim nihoyatsiz edi, lekin adolat bilan qilgan mana shu ishim menga panoh bo'ldi...⁷¹

Xulosa qilib aytganda, podshohning beg'araz qilgan ishi birma-bir o'z mukofotini oldi, chunonchi u jafokash kampirning hovlisini tuzatib berdi va bu fe'lida ikkiyuzlamachilik yo'qligini isbotladi, biz ko'rib turgan shamoli mushk tarqatuvchi, gardi anbardek xushbo'y bo'lgan bog'lar ana shu ezgu ishning evazidir. Kampirga qaytargani ikki shox o'tin badali mana shu to'biysifat daraxt, yashil ildizning evazi esa zumradrang hovuzdir. Kampir olgan bir etak somon – za'faron rangli xushbo'ylik o'simliklardir.

Xullas, hech bir yaxshilik javobsiz qolmaydi. Qaysi shoh Mas'uddek adolat yo'lini tutsa, Mahmuddek izzat-ikromga sazovor bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 10-jild. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2011. Bet 700.
2. Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslik asoslari. –T., Sharq, 2000, Bet 210.
- 3.Abdulla Ulug'ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2018. Bet 307.
- 4.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020, Bet 617.
- 5.Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy .— Toshkent. Yangi asr avlodi, 2021. Bet 447.

⁷¹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy.— Toshkent. Yangi asr avlodi, 2021, 91-bet.